



# Demografik holat

(dastlabki ma'lumotlar)


## Doimiy aholi soni.

Toshkent shahar doimiy aholisi soni 2020-yil 1-aprel holatiga 2586,9 ming kishini tashkil etib, 2020-yilning yanvar-mart oylarida 15,2 ming kishiga yoki 0,6 %ga o'sgan.


### E'tibor bering: 2020-yil yanvar-mart

- Aholi soni **15,2 ming kishiga** ko'paydi.
- Tirik tug'ilganlar soni **12,1 ming nafarni** tashkil etdi.
- **4,0 mingta** vafot etganlar qayd etildi.
- FHDYO bo'limlarida **3,2 mingta nikoh** va **1,0 mingta ajralishlar** ro'yxatga olindi.


## Toshkent shahar aholisining umumiy o'sishi (2020-yil yanvar-mart)



### Hududlar kesimida doimiy aholi sonining taqsimlanishi (2020-yil 1-aprel holatiga, shahar jami aholisiga nisbatan, %da)




Shahar hududlari kesimida tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, 2020-yil 1-aprel holatiga eng ko'p aholi soni Olmazor tumanida 369,6 ming kishini (shahar aholisi sonidagi ulushi 14,3 %ni) va Shayxontohur tumanida 344,4 ming kishini (13,3 %), aksincha eng kam aholi soni Bektemir tumanida 35,4 ming kishini (1,4 %) va Yakkasaroy tumanida 120,8 ming kishi (4,7 %) ni tashkil etdi.



Tumanlar kesimida doimiy aholi soni  
(2020-yil 1-aprel holatiga, ming kishida)



**Toshkent shahrining  
aholi soni 2020-yil 1-aprel  
holatiga 2586,9 ming  
kishi, o'tgan yilga  
nisbatan o'sish sur'ati  
2,6 foizga ko'paydi.**



Hududlar kesimida aholining eng yugori o'sish sur'ati 2019-yilning mos davriga nisbatan Sergeli tumanida 4,6 %ga, Yashnobod tumanida 3,2 %ga, Bektemir tumanida 4,4 %ga yetdi. Eng kam o'sish sur'ati Yakkasaroy tumanida 1,4 % ni, Yunusobod tumanida 1,6 %ni hamda Shayxontohur tumanida 2,0 % ni tashkil etdi.

## Demografik holat

### Toshkent shahrida aholi sonining jins bo'yicha taqsimlanishi (2020-yil 1-aprel holatiga, ming kishida)

#### Ma'lumot uchun

**Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra Toshkent shahri bo'yicha ayollar soni 1322,3 ming kishini, erkaklar soni esa 1264,6 ming kishini tashkil qildi. Ko'rsatkichlardan shuni kuzatishimiz mumkinki, ayollar soni 2.2% ga erkaklar sonidan ko'proq.**

	Doimiy aholi soni (ming kishi)	shundan:			
		erkak (ming kishi)	ayol (ming kishi)	erkak (foizda)	ayol (foizda)
<b>Toshkent shahar</b>	<b>2 586,9</b>	<b>1 264,6</b>	<b>1 322,3</b>	<b>48,9</b>	<b>51,1</b>
tumanlar:					
Uchtepa	272,6	134,2	138,4	49,2	50,8
Bektemir	35,4	16,9	18,5	47,7	52,3
Yunusobod	339,8	163,6	176,2	48,1	51,9
Mirzo Ulug'bek	277,8	138,4	139,4	49,8	50,2
Mirobod	139,9	68,5	71,4	49,0	51,0
Shayxontohur	344,4	169,9	174,5	49,3	50,7
Olmazor	369,6	179,8	189,8	48,6	51,4
Sergeli	192,9	90,1	102,8	46,7	53,3
Yakkasaroy	120,8	59,9	60,9	49,6	50,4
Yashnobod	242,2	118,2	124,0	48,8	51,2
Chilonzor	251,5	125,1	126,4	49,7	50,3

## Demografik holat

**Tug'ilish.** 2020-yilning yanvar-mart oylarida 12,1 mingta bola tug'ilganligi qayd etilgan bo'lib (bu yerda va bundan keyin faqat tirik tug'ilganlar inobatga olingan), mos ravishda 1000 aholiga nisbatan tug'ilish koeffitsiyenti 18,9 promilleni tashkil etib, 2019-yilning mos davriga nisbatan 2,1 promillega ko'paygan (2019-yilning yanvar-mart oylarida 16,8 promille bo'lgan).

Tug'ilish koeffitsiyenti 2019-yilning mos davriga nisbatan Uchtepa tumanida (20,1 promilledan 22,9 promillega) Mirzo Ulug'bek (13,0 promilledan 16,7 promillega) Olmazor tumanida (18,4 promilledan 20,8 promillega) tumanlarida sezilarli o'sganligi kuzatildi.

### Ma'lumot uchun

Tirik tug'ilganlik mezonlaridan (nafas, yurak urishi, kindik pulsatsiyasi, muskullarning beixtiyoriy qisqarishi) biri mavjud bo'lsa ham bola tirik tug'ilgan hisoblanadi. Bunda onaning homiladorlik muddati 22 hafta va undan ortiq, bolaning bo'yi 25 sm va undan ortiq, vazni 500 gramm va undan ortiq bo'lishi lozim.




**Qiz bolalar:**  
**5,9**  
**ming nafar**



**O'g'il bolalar:**  
**6,2**

### Toshkent shahri bo'yicha tug'ilganlar soni, kishi yanvar-mart



	2019 y.	2020 y.	O'sish surati foizda
<b>Toshkent shahar</b>	<b>10 437</b>	<b>12 120</b>	<b>116,1</b>
tumanlar:			
Uchtepa	1 320	1 548	117,3
Bektemir	202	219	108,4
Yunusobod	1 387	1 647	118,7
Mirzo Ulug'bek	872	1 153	132,2
Mirobod	475	533	112,2
Shayxontohur	1 478	1 527	103,3
Olmazor	1 633	1 905	116,7
Sergeli	907	1 054	116,2
Yakkasaroy	323	399	123,5
Yashnobod	899	1 045	116,2
Chilonzor	941	1 090	115,8





## Demografik holat

### Toshkent shahri bo'yicha tug'ilganlar soni (kishi) 2020-yil yanvar-mart



## Demografik holat

**Vafot etganlar.** 2020-yilning yanvar-mart oylarida 4,0 mingta o'lim qayd etilgan bo'lib, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan o'lim koeffitsiyenti 6,3 promilleni tashkil etib, 2019-yilning mos davriga nisbatan 0,1 promillega kamaydi (2019-yilning yanvar-mart oylarida 6,4 promille bo'lgan).

O'lim koeffitsiyenti 2019-yilning mos davriga nisbatan sezilarli darajada kamayishi Yakkasaroy (5,4 promilledan 4,7 promillega), Yunusobod (6,4 promilledan 6,0 promillega), Sergeli (7,2 promilledan 6,9 promillega), Uchtepa (6,6 promilledan 6,3 promillega) va Mirzo Ulug'bek (7,9 promilledan 7,6 promillega) tumanlarida kuzatildi.

### Vafot etganlar



2,0 ming  
kishi


2,0 ming  
kishi

### Toshkent shahri bo'yicha vafot etganlar soni (kishi) 2020-yil yanvar-mart


	2019-y.	2020-y.	O'sish sur'ati foizda
<b>Toshkent shahar</b>	3 995	4 040	101,1
tumanlar:			
Uchtepa	435	425	97,7
Bektemir	67	62	92,5
Yunusobod	524	507	96,8
Mirzo Ulug'bek	527	524	99,4
Mirobod	247	267	108,1
Shayxontohur	405	416	102,7
Olmazor	470	491	104,5
Sergeli	325	326	100,3
Yakkasaroy	160	142	88,8
Yashnobod	455	487	107,0
Chilonzor	380	393	103,4

## Demografik holat

### Toshkent shahri bo'yicha vafot etganlar soni (kishi) 2020-yil yanvar-mart



### Toshkent shahri bo'yicha vafot etganlarning o'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati (foizda)






## Demografik holat

2020-yilning yanvar-mart oylarida qayd etilgan vafot etganlarning 60,0 % qon aylanish tizimi kasalliklaridan, 13,7 % o'simtalardan, 5,1 % ovqat hazm qilish a'zolari kasalliklaridan, 3,2 % baxtsiz hodisa, zaharlanish va jarohatlanishlardan, 6,6 % nafas olish a'zolari kasalliklaridan, 3,3 % yuqumli va parazitlar kasalliklaridan hamda 8,1 % boshqa kasalliklardan vafot etgan.

Ro'yxatga olingan 1 yoshgacha vafot etgan bolalar soni 0,2 ming nafarni tashkil etib, ularning 56,1 % perinatal davrda yuzaga keladigan holatlardan, 15,6 % nafas olish a'zolari kasalliklaridan, 11,0 % tug'ma anomaliyalardan, 11,5 % yuqumli va parazitlar kasalliklaridan va 5,8 % boshqa kasalliklardan vafot etgan.

### Asosiy o'lim sabablari bo'yicha vafot etganlarning taqsimlanishi (jami vafot etganlarga nisbatan, %da)



### 2020-yil yanvar-mart

**Tabiiy o'sish.** 2020-yilning yanvar-mart oylarida aholining tabiiy o'sishi 8,1 ming kishini tashkil etib, 2019-yil mos davriga nisbatan 1,6 ming kishiga (2019-yilning yanvar-mart oylarida 6,4 ming kishi bo'lgan) o'sgan.



Tabiiy o'sish:  
8,1 ming kishi

## Demografik holat

**Nikoh.** 2020-yilning yanvar-mart oylarida FHDYO organlari tomonidan 3,2 ming ta nikoh qayd etildi, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan nikoh tuzish koeffitsiyenti 5,0 promilleni tashkil etdi.

Tuzilgan nikohlar soni 2019-yilning mos davriga nisbatan yuqori o'sish sur'atlari Mirobod (140,7%) tumaniga to'g'ri kelmoqda.

**Nikohdan ajralishlar.** 2020-yilning yanvar-mart oylarida FHDYO organlari tomonidan 1,0 mingta nikohdan ajralishlar qayd etildi, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan nikohdan ajralish koeffitsiyenti 1,6 promilleni tashkil etdi.



Ajrimlar soni 2019-yilning mos davriga nisbatan yuqori o'sish sur'atlari Bektemir (127,8%), Sergeli (102,8%), tumanlariga to'g'ri kelmoqda.

### Toshkent shahri bo'yicha tuzilgan nikoh va ajrimlar soni, birlik (2020-yil yanvar-mart)

	Tuzilgan nikohlar			Nikohdan ajralishlar		
	2019-y.	2020-y.	O'sish surati foizda	2019-y.	2020-y.	O'sish surati foizda
<b>Toshkent shahri</b>	<b>3 494</b>	<b>3 213</b>	<b>92,0</b>	<b>1 101</b>	<b>998</b>	<b>90,6</b>
tumanlar:						
Uchtepa	394	310	78,7	116	98	84,5
Bektemir	71	70	98,6	18	23	127,8
Yunusobod	465	431	92,7	138	122	88,4
Mirzo Ulug'bek	321	320	99,7	127	121	95,3
Mirobod	113	159	140,7	72	51	70,8
Shayxontohur	452	371	82,1	106	103	97,2
Olmazor	425	404	95,1	129	124	96,1
Sergeli	283	277	97,9	106	109	102,8
Yakkasaroy	235	202	86,0	54	39	72,2
Yashnobod	336	280	83,3	111	101	91,0
Chilonzor	399	389	97,5	124	107	86,3

## Demografik holat

Toshkent shahri bo'yicha tuzilgan nikoh va ajrimlar soni, birlik  
(2020-yil yanvar-mart)



## Demografik holat


**Migratsiya.** 2020-yilning yanvar-mart oylarida Toshkent shahri bo'yicha ko'chib kelganlar soni 8,7 ming kishini, ko'chib ketganlar soni esa 1,6 ming kishini tashkil etdi. Migratsiya saldosini 7,1 ming kishi bo'lib, 2019-yilning mos davrida 5,8 ming kishi bo'lgan.

### Aholi migratsiyasi (ming kishi)

	2019-yil yanvar-mart	2020-yil yanvar-mart
<b>Ko'chib kelganlar</b>	7,6	8,7
<b>Ko'chib ketganlar</b>	1,8	1,6
<b>Migratsiya saldosini</b>	5,8	7,1



### Toshkent shahrining tumanlar kesimidagi aholi migratsiyasi (ming kishi)



Migratsiya saldosining yuqori darajasi Yashnobod (1,4 ming kishi), Sergeli (1,3 ming kishi), Mirzo Ulug'bek (1,2 ming kishi) hamda Olmazor (1,1 ming kishi) tumanlarida qayd etildi.

Toshkent shahar statistika boshqarmasi  
Demografiya va mehnat statistikasi bo'limi  
Nashr uchun mas'ul: O.Abdurahmanov  
(71) 230-88-22